Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTONDA SPORT MAKTABLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-METODIK MEXANIZMLARI

Muzaffarxo'ja Yunusxonovich Raxmatxo'jaev*
O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti mustakil tadqiqotchisi
✉ muzaffar.yunusxonovich73@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda sport maktablari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning hozirgi holati tahlil qilinib, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi tashkiliy va metodik omillar o'rganilgan. Tadqiqotda sport maktablari faoliyatida uchrayotgan asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-metodik mexanizmlar taklif etilgan. Jumladan, boshqaruv tizimini takomillashtirish, murabbiylar kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish, o'quv-mashg'ulot jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari sport maktablari faoliyati samaradorligini oshirish va sport ta'limi sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

sport maktabi, tashkiliy mexanizm, metodik mexanizm, boshqaruv, sport ta'limi, murabbiy, innovatsiya, raqamlashtirish.

DOI: 10.5281/zenodo.21835503

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sport maktablari yosh avlodni sog'lom tarbiyalash, iqtidorli sportchilarni saralash va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda muhim bo'g'in hisoblanadi [1;2;3]. Biroq sport maktablari faoliyatini tashkil etishda boshqaruv, moddiy-texnika bazasi, o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va metodik ta'minot bilan bog'liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois mazkur sohada tashkiliy-metodik mexanizmlarni takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur muammo xorijlik olimlardan L. Matveev, Yu. Verxoshanskiy, V. Platonov, T. Bompa kabilar tomonidan sport tayyorgarligi nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan [7, b.42; 8, b.15].

O'zbekiston olimlaridan R.S. Salomov, A.A. Abdullaev, Sh.X. Xonkeldiev, F.A. Kerimov va boshqalar sport ta'limi hamda sport muassasalari faoliyatini tashkil etishning turli jihatlarini o'rganganlar [4, b.24; 5, b.31; 6, b.18]. Ammo sport maktablari faoliyatini zamonaviy boshqaruv texnologiyalari asosida takomillashtirish masalasi qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Tadqiqot maqsadi: O'zbekistonda sport maktablari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi tashkiliy va metodik mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini asoslash.

Tadqiqot metodlari:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;
- qiyosiy tahlil;
- anketa so'rovi;
- ekspert baholash;

• statistik tahlil.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot davomida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sport maktablari faoliyatini tashkil etishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy manbalar va amaliy tajribalar tahlil qilindi [1;2;3]. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, sport maktablari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ayrim sport maktablarida boshqaruv jarayonlarining zamonaviy menejment talablari asosida tashkil etilmaganligi, o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini rejalashtirish va nazorat qilishda yagona metodik yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda murabbiylarning kasbiy kompetentsiyalarini muntazam rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish zarurligi aniqlandi [4, b.112; 5, b.146; 6, b.95; 9, b.211]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish, sportchilarning tayyorgarlik darajasini monitoring qilish va faoliyat natijalarini baholash tizimini yanada takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqot natijalari asosida sport maktablari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida strategik rejalashtirishni kuchaytirish, boshqaruvning raqamli mexanizmlarini joriy etish, murabbiylarning malakasini kompetentsiyaviy yondashuv asosida oshirish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda ichki monitoring va baholash tizimini takomillashtirish taklif etildi [8, b.137; 9, b.318; 10, b.254].

Fikrimizcha, mazkur tashkiliy-metodik mexanizmlarning amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi sport maktablarida boshqaruv samaradorligini oshirish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoni sifatini yaxshilash, iqtidorli sportchilarni saralash va tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda sportchilarning yuqori sport natijalariga erishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [7, b.214; 8, b.201; 10, b.376].

Sport maktablari faoliyatida aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari

Aniqlangan muammo	Taklif etilayotgan mexanizm	Kutilayotgan natija
Boshqaruv tizimining samaradorligi past	Strategik boshqaruv modeli	Boshqaruv samaradorligi oshadi
Murabbiylar malakasini oshirish tizimi yetarli emas	Uzluksiz malaka oshirish dasturlari	Kasbiy kompetentsiyalar rivojlanadi
Raqamli texnologiyalardan foydalanish cheklangan	Elektron monitoring va raqamli platformalar	Nazorat va tahlil sifati yaxshilanadi
Mashg‘ulotlarni metodik ta‘minlash yetarli emas	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish	Mashg‘ulotlar samaradorligi oshadi

XULOSA

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda sport maktablari faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda tashkiliy va metodik mexanizmlarni kompleks ravishda joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi [2; 3; 10, b.401]. Tahlillar davomida boshqaruv jarayonlarini tashkil etish, o‘quv-mashg‘ulot ishlarini rejalashtirish, murabbiylarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish, moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi [4, b.185; 5, b.203; 6, b.171].

Tadqiqot asosida sport maktablari faoliyatini strategik boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish, zamonaviy menejment yondashuvlarini qo‘llash, murabbiylarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda monitoring va baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-metodik takliflar ishlab chiqildi [7, b.356; 8, b.284; 9, b.402]. Mazkur takliflarning amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etilishi sport maktablari faoliyati samaradorligini oshirish, sportchilarni tayyorlash sifatini yaxshilash va sohada boshqaruvning ochiqligi hamda natijadorligini ta‘minlashga xizmat qiladi [10, b.417].

Shu bilan birga, sport maktablari faoliyatini takomillashtirishda davlat organlari, ta‘lim muassasalari va sport tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, raqamli boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy tizimga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [2; 9, b.511; 10, b.428]. Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar sport maktablari boshqaruvini yanada takomillashtirish, sport ta‘limi sifatini oshirish hamda mamlakatimizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini rivojlantirishga ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2015 (yangi tahrir va keyingi o‘zgartishlar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF–6099-son Farmoni «Sog‘lom turmush tarzini keng joriy etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 noyabrdagi PQ–414-son qarori «Sport ta‘limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
4. Abdullaev A.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 320 b.
5. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: ILM ZIYO, 2015. – 296 b.
6. Kerimov F.A. Sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish asoslari. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2018. – 248 b.
7. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. – Киев: Олимпийская литература, 2015. – 680 с.
8. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. 6th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 392 p.
9. Houlihan B., Green M. Routledge Handbook of Sports Development. – London: Routledge, 2011. – 624 p.
10. De Bosscher V., Shibli S., Westerbeek H., van Bottenburg M. Successful Elite Sport Policies: An International Comparison of the Sports Policy Factors Leading to International Sporting Success (SPLISS 2.0). – Aachen: Meyer & Meyer Sport, 2015. – 432 p.